

## ALISHER NAVOIY «XAMSA» ASARINING JAHONDA TUTGAN O'RNI

**Shahlo Solijonova**

Farg'onan davlat universiteti filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada «Xamsa»asari qisqa muddatda yaratilganligiga qaramay,yetuk jihatdan yozilganligini ko'rish mumkin.Ushbu maqolaning kirish qismida Navoiy hayoti haqida,asosiy qismida esa «Xamsa»ni yaratilish tarixi,undagi qahramonlar haqida bayon qilinadi.

**Kalit so'zlar:**»Xamsa», g'azal, do'stlik, ijodkor,Hiro, turkiy til.

**Abstract:** In this article,it can be seen that the epic»Khamsa» was written in a mature manner,despite the fact that it was created in a short period of time. The introductory part of this article describes the life of Navoi, and the main part describes the history of the creation of «Khamsa» and its characters.

**Keywords:**»Khamsa»,epic, friendship,creator, Hiro, turkish language,ghazal.

**Аннотация:** В данной статье видно, что эпос «Хамса» написан в зрелой манере, несмотря на то, что создан в короткий срок. Вступительная часть данной статьи описывает жизнь Навои, а основная часть описывает историю создания «Хамсы» и ее персонажей.

**Ключевые слова:**»Хамса», газель, дастан, Герат дружба, творческий, турецкий язык.

### KIRISH

G'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy (to'liq ismi Nizomiddin Mir Alisher) 1441-yil 9-fevralda Xuroson poytaxti Hirotda tug'ilgan. Otasi G'iyosiddin Muhammad ham ma'rifatli insonlar qatorida bo'lib, temuriylarga yaqin amaldor bo'lgan.Alisher Navoiyning zehnli ekanligini uning yoshlik chog'ida tushinilishi qiyin bo'lgan asar Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» dostonini to'liq yod olganligidan bilish mumkin.

Navoiy yashagan davrda shoirlar ikki xil tilda ijod qilishgan»turkiy va forsiy. Shoir o'zining turkiy asarlariga»Navoiy», forsiy asarlariga esa»Foniq «taxallusini qo'llagan. Navoiy yoshlik chog'idayoq yozgan she'rlari bilan o'z davrining mashhur shoir, olimlari diqqatini tortdi. Navoiy mashhur shoir Mavlono Lutfiy huzuriga boradi, Lutfiy esa undan she'r o'qib berishini iltimos qiladi. Navoiy ozining:

Orazin yopg'och ko'zimdin sochilur har lahza yosh,

Bo'yla kim paydo bo'lur yulduz nihon bo'lgach quyosh.

Keksa shoir bu g'azaldan ajablanadi va bunday deydi:»Butun umrim davomida yozgan 10-12 ming misra baytimni shu g'azalga almashtirgan bo'lardim». Bu turkiy til she'riyatiga katta iste'dodli shoir kirib kelayotganidan nishona edi.

Bu misralarning ma'nosini quyidagicha talqin qilishimiz mumkin:» Yor yuzini yopganda ko'zimdan har lahza yosh oqadi, go'yoki quyosh botib yulduzlar paydo bo'lgani kabi». Navoiyning yaqin do'sti Husayn Boyqaro 1469 yil taxtga chiqadi va

maktabdosh do'sti Alisher Navoiyni saroyiga taklif etadi. Boyqaro shoirning qarshiligiga qaramay avval muhrdor, so'ngra vazir martabasiga ko'taradi. Tez orada esa Navoiy «amirul muqarrab»(podshoga eng yaqin amir), »amiri kabir»(ulug' amir) unvonlariga musharraf bo'ladi. Davlat ishlari bilan bir qatorda o'zining sevimli mashg'uloti – badiiy ijodni ham to'xtatmadi. 1472-1476 yillarda «Badoye ul – bidoya»(Badiiylik ibtidosi), 1476-1483 yillarda esa «Navodir un- nihoya»(Tuganmas nodirliklar) nomli devonlarini tuzdi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Navoiy shuncha asar yozganligiga qaramay, uning ijodining yuksak cho'qqisi «Xamsa» asaridir. E'tiborli jihat shundaki, shoir »Xamsa»si turkiy tilda yozilgan edi. Navoiy birinchilardan bo'lib turkiy tilda «Xamsa» yaratdi. Xamsa yaratish Sharq adabiyotining an'analaridan biri hisoblangan. Shu sababdan ham «Xamsa» yaratgan shoirlar unchilik ko'p emas.

Avvalo, »Xamsa» yozish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish joiz bo'ladi:

1. Besh dostonidan iborat bo'lishi
2. Birinchi doston pand-nasihat ruhidagi ta'limiy-axloqiy, falsafiy bo'lishi
3. Ikkinci doston Xusrav va Shirin mojarolariga bag'ishlanishi
4. Uchinchi doston Layli va Majnun muhabbatini mavzu qilishi.
5. To'rtinci doston Bahrom, beshinchi doston esa Iskandar haqida yozilishi shart edi.

Navoiy o'zining ustozlari Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviydan ilhomlangan holda yaratdi. Ajablanarli tomoni shundaki, 51 ming misradan iborat bu beshlikni juda qisqa muddatda 1483-1485 yillarda yozib tugatgan. Shoirning «Xamsa»si «Hayrat ul- abror», »Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», »Sab'ai sayyor», »Saddi Iskandariy» dostonlaridan iborat.

Dostonlar an'anaviy muqaddima – hamd va na't qismlaidan iborat. Hamd-Yaratuvchimiz Alloohni ulug'lash, na't esa Payg'ambarimiz Muhammad(s.a.v) alqovidir.

Navoiy o'zining «Xamsa» asarida zamonasining barcha dolzarb muammolarini qalamga oldi. Shoirning 1-chi dostoni «Hayrat ul-abror»da birorta ham qahramon ishtirok etmaydi, bu pand-nasihat ruhida yozilgan dostondir. Shuning uchun ushbu dostonda muallif fikr-mulohazalarining bayoni tarzida yozilgan. 20ta maqolatdan iborat. Bu dostonning har vir qismida insonning kundalik hayoti bilan bog'liq axloqiy, diniy, falsafiy biror mavzu bayon qilinadi.

Ikkinci doston «Farhod va Shirin»da Navoiy yangilik kiritdi. Doston Navoiygacha «Xusrav va Shirin» nomi bilan mashhur bo'lgan. Undagi bosh qahramon shoh Xusrav edi. Lekin u ishqidan yiroq, muhabbatdan ko'ra toj- taxtni ustun ko'rvuchi xudbin shaxs edi. Navoiy Shirinning muhabbatini Xisravga munosib ko'rmadi. Shuning uchun shoir Farhodni bosh qahramon qilib oldi. Asardagi Farhod va Shirinni shunchaki bir biriga ko'ngil qo'ygan yigit va qiz deb tushunmasligimiz kerak. Dostonda Farhod poklanish ila komillik sari intilayotgan mo'min inson timsolidir.

Uchinchi doston «Layli va Majnun»dostoni 3622 baytdan iborat. Navoiy Layli va Majnun sarguzashtlariga yangicha ruh va mazmun baxsh etadi, hamda dostonga yangicha timsollar kiritadi. Navoiy doston mazmuniga o'zining falsafiy qarashlarini singdirib yuborish maqsadi ekanligini ta'kidlagan. Alisher Navoiyning «Layli va Majnun» dostonida botiniy mazmunidagi majoziy ishq sinoatlari aks etganligi anglashiladi. Botiniy ma'nida muallif falsafiy qarashlarini aks etgan bo'ladi. Shoirning ushbu dostonidan so'ng xalqimizda «Layli va Majnun»ning ko'plab folklor varianti vujudga keldi.

Navoiyning to'rtinchi dostoni «Sab'ai sayyor «da bir qancha do'st timsollari keltirilgan. Shoirning eng yaqin do'sti Husayn Boyqaro ekanligini yuqorida aytgan edik. Dostonning 9-bobini aynan do'stining madhiga bag'ishlaydi. Uni saxovatli inson, adolat egasi deya ta'riflaydi. Shoh Bahromga atab qurilgan 7 sarayda 7 sayyoh tomonidan aytilgan 7 hikoyada ham do'st timsolining yorqin namunalarini ko'rish mumkin.

«Saddi Iskandariy» «Xamsa»ning yakunlovchi dostonidir. U hajm jihatidan eng yirik doston hisoblanadi va bu doston 3 sohibqironning eng mashhuri jahongir Iskandarga bag'ishlangan. Bu dostonni quyidagicha qismlarga bo'lish mumkin:

- Kirish-1-14-boblar
- Asosiy qism-15-87-boblar
- Xotima-88-89-boblar

Dostonda Iskandarning harbiy yurishlari ham aks etgan bo'lsa -da, lekin jangnoma doston emas. Doston Faylaqusning Iskandarni topib olishi bilan boshlanadi va u Iskandarni o'zi tarbiya qiladi. Iskandarning yoshlikdan bilim olishga ishtiyoqi alohida ta'kidlanadi:

Qaysi ishni ta'lif qilg'on zamon  
Eshitmak hamon erdi bilmak hamon

Adib dostonda olimlar, podsholar obrazlarini ham rang-barang tasvirlagan. Iskandar ham shular sirasiga kiradi. Navoiy uni mohir sarkarda, yetuk olim sifatida gavdalantiradi.

#### XULOSA

«Xamsa»ning tugatilishi juda katta ijtimoiy va adabiy hodisa edi. Buni adib: »Manga davlat ilgi rahnamun bo'ldi», -deya takidlaydi. Muhim jihat takidlab o'tilganidek, turkiy tilda birinchi marotaba yaratilgani edi. Navoiydan keyin hech kim bunday yuqori martabaga erisholmadi. Husayn Boyqaro «Xamsa» yozishga ketgan vaqt hisoblanadigan bo'lsa, 6oydan oshmas edi deya lutf qilgan. Navoiy «Xamsa»si 15-asr islom tafakkurining inson va jamiyat, tabiat va borliq haqidagi o'ziga xos qomusi edi. «Xamsa» dostonlaridagi muqaddimalar shunchaki kirish qismini bajarmagan, balki dostonlar mundarijasini uchun vazifasini o'tagan. Muqaddimada mutafakkirning umr va uning mazmuni haqidagi qarashlari shoir va ijodkor sifatida qo'llagan badiiy timsollar, tashbeh-u tamsillar vositasida namoyon bo'ldi.

Alisher Navoiy «Xamsa»si o'zbek va jahon adabiyotining so'limas durdonasidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Юсупова Д. Узбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври), Академнашр,- Т.,2013.-Б.83,85
2. Umumiy o'rta ta'lif maktabilarning 7-sinfi uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashr/Q. Yo'ldoshev,B. Qosimov,V. Qodirov,J. Yo'ldoshbekov.-T:»Sharq»,2017
3. O. Madoyev «Навоий сұхбатлари», О'qituvchi,-Т.,2018.-Б 158
4. Навоий М. А. Т,»Фан», -Т.1997.-Б 219.
5. Хомидий Х.Ганжалик пир//»Сино».2002 № 7. -Б 31